



## Socio-philosophical aspects of studying the characteristics of student youth

Dildora ISKANDAROVA<sup>1</sup>

Andijan State University

### ARTICLE INFO

#### **Article history:**

Received August 2024

Received in revised form

15 September 2024

Accepted 25 September 2024

Available online

15 October 2024

#### **Keywords:**

student,  
youth,  
value orientations,  
personality,  
society,  
social group,  
values,  
education,  
demography,  
dialectics.

### ABSTRACT

The article examines the features of value orientations among university students and the youth period from a socio-philosophical perspective. From an axiological standpoint, youth is considered the most vivid and significant stage in a person's life, and young people experiencing this period represent an important social value. Their value orientations and life choices have a direct impact on society's development. The proper direction of youth's potential and values, along with their development and purposeful implementation, become essential factors in social progress.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss10/S-pp144-154>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Talaba yoshlar xususiyatlarini o'rganishning ijtimoiy-falsafiy jihatlari

#### **Kalit so'zlar:**

talaba,  
yoshlar,  
aksiologik oriyentatsiya,  
shaxs,  
jamiyat,  
ijtimoiy guruh,  
qadriyat,  
ta'lim,  
demografiya,  
dialektika.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada talaba yoshlar aksiologik oriyentatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, yoshlik davri ijtimoiy – falsafiy nuqtayi nazardan o'rganilgan. Shuningdek, aksiologik nuqtai nazardan inson umrining eng go'zal davri yoshlik davrining va uni boshdan kechirayotgan subyektlar – yoshlarning o'zi ham ulkan ijtimoiy qadriyat ekanligi haqida so'z boradi.

<sup>1</sup> Senior Lecturer, Department of Philosophy, Andijan State University.

# Социально-философские аспекты изучения особенностей студенческой молодежи

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

студент,  
молодежь,  
ценностные ориентации,  
личность,  
общество,  
социальная группа,  
ценности,  
образование,  
демография,  
диалектика.

В статье рассматриваются особенности ценностных ориентаций студенческой молодежи и период молодости с социально-философской точки зрения. С аксиологической точки зрения молодость считается самым ярким и значимым этапом жизни человека, а молодые люди, переживающие этот период, представляют собой значительную социальную ценность. Их ценностные ориентации и жизненные выборы оказывают непосредственное влияние на развитие общества. Правильное направление потенциала и ценностей молодежи, а также их развитие и целенаправленная реализация становятся важными факторами социального прогресса.

## KIRISH

O'zbekiston aholisining katta qismini yoshlar tashkil etadi. 2023-yilning boshida yoshlarning soni 19,6 millionga yetgan bo'lib, bu aholining 60 foizini tashkil etgan. Yoshlar mamlakatning muhim resursi bo'lib, jamiyat va millat kelajagining qanday bo'lishi ularga bog'liq.

Yoshlar jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy qatlamni tashkil etadi. Bu qatlam yoshlik davri xususiyatlari, jamiyatda egallab turgan ijtimoiy o'rni, bajarayotgan funksiyalari, o'ziga xos faoliyati bilan ajralib turuvchi etnik, ijtimoiy-demografik guruh bo'lib, u balog'atga yetish, shaxs sifatida shakllanish davrini boshdan kechirayotgani bilan tavsiflanadi. Yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida yoshini aniqlashda turli yondashuvlar mavjud. Yoshlik davrini mazkur soha mutaxassislari sotsiologlar, psixologlar, demograflar va boshqalar tomonidan asosan 14–16 yoshdan boshlanib 25–30 yoshda yakunlanishi ta'kidlanadi.

## MATERIAL VA METODLAR

Yoshlik davrini ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan o'rganilganda imkoniyatlarga to'la davr – inson hayotining evolyutsion, oddiydan murakkabga tomon dialektik tarzda bosqichma-bosqich borishi, o'z maqsad va orzulari tomon harakat qilishi asosida kelajakka qarab intilishi sifatida tushunish mumkin. Aksiologik nuqtai nazardan inson umrining eng go'zal davri yoshlik davrining va uni boshdan kechirayotgan subyektlar – yoshlarning o'zi ham ulkan ijtimoiy qadriyatdir. Yoshlik davri unchalik barqaror bo'lmagan, yoshlarning muntazam intiluvchanlik, biror kasbni egallashga tayyorgarlik, ijtimoiy o'rni va ijtimoiy mavqeini egallashga harakat qilish, qadriyatlarining barqaror emasligi ko'p holatlarda norozilik hissini kuchli aks ettiradigan kabi jihatlari inson hayotining boshqa davrlaridan ajratib turadi.

## NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Yoshlar, talaba yoshlar kelajakda jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim subyektiv omil hisoblanadi. Talaba yoshlar esa jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy hodisalarga eng befarq bo'lmagan qatlam — ziyolilar qatlamining muhim a'zolari, yetakchilaridir. Ularning ongi, maqsadi, ijtimoiy ehtiyojlari, qanday qadriyatlarga amal qilayotganligi jamiyatning ijtimoiy muhitiga, kayfiyati hamda ideallariga ta'sir etadi.

Chunki tarixiy davrning xususiyatlaridan kelib chiqib, ularning yosh darajasi ham turlicha bo'lgan.

**Yoshlar qatlamini quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin:**

1. Ishlovchi yoshlar.
2. Talaba yoshlar.
3. Ta'lim muassasalarida o'qiydigan yoshlar.
4. Ishsiz yoshlar.
5. Uyushmagan yoshlar.
6. Migrant yoshlar.

Sanab o'tilgan guruhlar shartli ravishda bir-biridan ajratilgan bo'lib, ular o'rtasida qat'iy chegara yo'q. Mazkur guruhlariga yuqori dinamika xos bo'lib, ularga birlashgan yoshlarni jamiyatda egallab turgan ijtimoiy o'rni, roli va bajarayotgan funksiyasi bo'yicha salohiyatlilik nuqtai nazaridan ham bir-biridan ajratish mumkin. Faylasuf olim Q.Nazarov yoshlarni quyidagicha tavsiflaydi: "Yoshlar ma'naviy dunyoqarashi shakllanayotgan, qaror topayotgan, asosiy ijtimoiy o'sishni, intensiv ijtimoiylashuv va moslashuvni, ijtimoiy va ruhiy fiziologik balog'at yoshni boshdan kechirayotgan ijtimoiy demografik guruhdir. Yoshlarning alohida ijtimoiy-ruhiy qiyofasi jamiyatning umumiy holati, ijtimoiylashuv qonuniyatlari, ta'lim-tarbiya imkoniyatlari bilan belgilanadi" [2. B. 353].

Yoshlik davri va yoshlarni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan o'rganish ularning ijtimoiylashuvi kontekstida amalga oshirilishi zarur. Bu jarayonda ikki tomonlama xususiyatga ega bo'lgan hodisalar namoyon bo'ladi. Yoshlar avlodlarning uzluksizligi, davomiyligi va o'zaro bog'liqligini ta'minlash orqali jamiyatning kelajagini belgilab beruvchi ijtimoiy guruhdir. "Yoshlar – obyektiv ijtimoiy hodisa, jamiyatning bir qismini tashkil etuvchi o'ziga xos katta ijtimoiy guruhdir. Shunga ko'ra yoshlar muammolari butun jamiyatning muammosi hisoblanadi. Jamiyat - yoshlar o'zaro munosabati butun va qismning dialektik aloqadorligidir: yoshlar taraqqiy etayotgan jamiyatni o'rganib, ular uchun zarur sharoitlarni yaratishimiz mumkin, yoshlarni barcha muammolari ziddiyatlari bilan tahlil etib, biz jamiyatning kelajak taraqqiyoti tendensiyalarini anglay olamiz" [3. B. 3].

Yoshlar qatlami barcha vakillarining maqsadlari, intilishlari, ehtiyojlari, ideallari o'xshash. Ularning vazifalari, xatti-harakatlari va muammolari ham bir-biriga o'xshash. "Yoshlar" kategoriyasini barcha avlodlarga nisbatan qo'llash mumkin. Ularning yoshlik davri va yoshi deyarli bir xil. Faqat avlod sifatida yoshlar turli davrlarda o'zgacha ijtimoiy-tarixiy sharoitlarni, ijtimoiy munosabatlarni boshdan kechirgan. Ular turlicha vazifalarni bajarib kelgan va jamiyatdagi roli ham davrning xususiyatidan kelib chiqib bir-biridan farq qilgan. Hozirgi kunda umuman yoshlar muammosini o'rganishga zamon talablaridan kelib chiqib, o'ziga xos yondashuvlar yuzaga kelmoqda.

Yoshlar haqida gapirganda, ular yashagan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tarixiy davr, tarixiy makonni hisobga olish zarur. Turli tarixiy davrlarda masalan XX asr yoshlari yoki XXI asr yoshlari haqida gap borganda, albatta, bu yoshlarga ta'sir etayotgan ma'lum davr, masalan mustaqillik davri, XXI asr yoshlari zamonaviy axborot davri xususiyatini yoshlarda, ularning xatti-harakatlari, xarakteri, bilim olish va boshqalarda aks etishini anglash mumkin. Jamiyat muammolari yoshlar muammolarini xam yuzaga keltiradi. Yoshlarning faoliyati, ehtiyojlari bu davrning talablari va ehtiyojlari bilan bog'liq. "Yoshlar – obyektiv ijtimoiy hodisa, jamiyatning bir qismini tashkil etuvchi o'ziga xos katta ijtimoiy guruhdir. Shunga ko'ra yoshlar muammolari butun jamiyatning

muammosi hisoblanadi. Jamiyat-yoshlar o'zaro munosabati butun va qismning dialektik aloqadorligidir: yoshlar taraqqiy etayotgan jamiyatni o'rganib, ular uchun zarur sharoitlarni yaratishimiz mumkin, yoshlarni barcha muammolari ziddiyatlari bilan tahlil etib, biz jamiyatning kelajak taraqqiyoti tendensiyalarini anglay olamiz" [3. B. 3].

Bunday munosabatning asosida ijtimoiy jarayonlarga to'g'ri aksiologik munosabat turadi. Chunki jamiyatda amalga oshayotgan har bir hodisa yoshlar uchun ma'lum nafaqat ijtimoiy, aksiologik ahamiyatga ega. Jamiyat taraqqiyoti tobora tezlashib va murakkablashib borgan sari bu jarayonda yuzaga kelayotgan hamda kun tartibiga qayta-qayta qo'yilayotgan muammolardan biri yoshlarning amal qiladigan qadriyatlari va ularning aksiologik oriyentatsiyasi bo'lib qolmoqda. Yoshlar aksiologik oriyentatsiyasi muammosi insoniyat taraqqiyotining barcha tarixiy bosqichlarida hamda turli jamiyatlar hayotida doimo mavjud bo'lgan. Bu muammo mohiyatan kelajak taraqqiyotini belgilash, uning istiqbolli yo'nalishlarini, dinamikasini to'g'ri aniqlab olish muammosi sifatida qaralishi mumkin.

Ma'lumki, O'zbekistonda so'nggi yillarda ulkan modernizatsiya jarayonlari amalga oshmoqda. Uning natijasida jamiyat a'zolari ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy ongida tubdan o'zgarishlar yuz bermoqda. Jamiyatda asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga, madaniyat, milliy turmush tarziga nisbatan o'zgacha zamonaviy munosabat shakllanmoqda [4. B. 140]. Jamiyat ijtimoiy ongining mamlakatda amalga oshib borayotgan islohotlar sharoitida o'zgarib borishi, o'zgarishlar borasida faol pozitsiyaga ega bo'lib, o'zi faoliyat ko'rsatayotgan sohada yangiliklarga intilishi va ularni joriy etishi orqali davlatimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda davrning o'ta dinamik xususiyatga ega bo'lib borayotgan zamonaviy ruxi yoshlardan yuksak intellektual va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lish orqali qayd etilgan ijtimoiy jarayonda faol bo'lishni talab etayotganligi aniq. Bu nuqtai nazardan jamiyat a'zolarining amal qilayotgan qadriyatlari, ularning ijtimoiy ongida qanday qadriyatlarni ustuvor bo'lishi hamda hozirgi zamonda milliy va umuminsoniy qadriyatlar doirasida tanlab olinayotgan qadriyatlari doirasida, ya'ni qadriyatlar oriyentatsiyasi jamiyatning kelajak taraqqiyotiga albatta, ta'sir ko'rsatadi.

Yangi O'zbekistonning iqtisodiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyotini mamlakatimiz yoshlarining maqsad va manfaatlari, tanlab olgan yo'llari faoliyati, salohiyati, innovatsiyalarga intilishlari kabi xususiyatlari ma'lum jihatdan belgilab beradi. Bu borada amalga oshirilayotgan tadqiqotlarning vazifasiga yoshlarning qadriyatlar tizimini aniqlash, ularni ijtimoiy taraqqiyotning subyekti sifatida maqsadlari, manfaatlari faoliyatini, bir so'z bilan aytganda, jamiyatdagi o'rni va rolga ular tomonidan tanlab olinayotgan qadriyatlarning qanday ta'sir etayotganligini aniqlash ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Chunki subyektning ongi, dunyoqarashi, qadriyatlari u amalga oshirayotgan faoliyati orqali jamiyat taraqqiyoti sur'atlarini tezlashtirib, ma'lum tomonga yo'naltirishda ahamiyatli bo'lishi mumkin. Bu jarayonda yoshlarning aksiologik oriyentatsiyasi o'ziga xos progressiv rolni bajarishi mumkin. So'nggi yillarda mamlakatda yangi ijtimoiy reallikning yuzaga kelishi, yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlash borasida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Biz yuqorida yoshlarni ijtimoiy guruh sifatida shartli ravishda turli guruhlarga ajratib klassifikatsiyasini keltirilgan. Yoshlarning ijtimoiy guruh sifatida tizimida talaba yoshlar muhim o'rin egallaydi.

Talaba – lotinchadan, “tinmay ishlovchi”, “o’rganuvchi” degan ma’noni anglatadi. Qadimda biror narsa yoki hodisani bilishga intilib, bilish jarayoni bilan band bo’lgan kishilarni talaba, deb atalgan. Universitetlarning yuzaga kelishi natijasida “talaba” so’zi “bilim oluvchi” tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatila boshlandi [5]. Bu tushuncha talaba yoshning jamiyatdagi mavqeini, o’rni va xususiyatini anglatadi.

Talaba yoshlar yoshlarning boshqa vakillariga nisbatan bilimi, kasbga tayyorligi, ma’naviyati, axloqi, intellektual salohiyati kabi jihatlari bilan farq qiladi. Jamiyat ularni mas’uliyatli, vatanimiz, jamiyat, millat kelajagi uchun javobgar bo’lgan hamda bu mas’uliyatni o’z zimmasiga oladigan ziyolilar guruhining bo’lajak a’zolari sifatida tasavvur etadi. Talaba yoshlar yoshlarning asosiy xususiyatlarini ifoda etadi va shu bilan birga farq qiladi. Talabalar yoshlar qatlamining bo’lajak mutaxassis sifatida tayyorlanayotgan, ta’lim olgan yuqori darajali mavqega ega bo’lgan guruhidir. Talaba yoshlarning kelajakda ma’lum kasbning egasi yoki jamiyatda faol shaxs sifatida shakllanishi borasida ham boshqalarga nisbatan imkoniyatlari hamda sharoitlari kengroq 1 hisoblanadi.

O’zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar va talaba yoshlarga qaratilgan davlat siyosatida ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari katta rol o’ynaydi. Ta’lim tizimi yoshlar siyosatini tarbiya orqali amalga oshirsa, ommaviy axborot vositalari turli ta’sirlar orqali bajaradi.

Talaba yoshlarni falsafiy muammo sifatida o’rganishga bir qator olimlar e’tibor qaratmoqdalar. O’tgan asrda talaba yoshlar muammosiga bag’ishlab amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar borasida rus olimlari P.A.Sorokin, S.N.Ikonnikova, V.T.Lisovskiylarning ilmiy izlanishlari muhim o’rin egallaydi. Ularning fikricha, talabalik so’zsiz ma’lum vaqt va makonda qaytariluvchi, jamiyatning ko’plab a’zolariga, ijtimoiy guruhlariga ta’sir ko’rsatuvchi muhim ijtimoiy guruh hisoblanadi. S.N.Ikonnikova, V.T.Lisovskiy ijtimoiy mavqeiga ko’ra talabalar ijtimoiy guruh bo’lib, fan, texnika, boshqaruv, madaniyat sohalarida faoliyat olib boruvchi yuqori malakali mehnat bilan shug’ullanuvchi ziyolilar qatlamiga yaqin turuvchi va bu qatlamni muntazam to’ldirib boruvchi, o’ziga xos xazina guruhini tashkil etadi. Talaba V.T.Lisovskiyning fikricha, o’ziga xos shaxs sifatida kelajakda moddiy va ma’naviy ishlab chiqarish sohasida oliy ma’lumotli mutaxassisning ijtimoiy tayyorgarlik funksiyasini bajaradi. Demak, talaba yoshlar yoshlar qatlamining ma’rifatli, bilimli hamda ilg’or qismini tashkil etadi [6].

Chunki ularning bilim olish, madaniy-ma’naviy, axloqiy tarbiya olish uchun imkoniyatlari, vaqti, axborotlashuv jarayonlari bilan bog’liq bo’lgan yengilliklar, davlatimiz tomonidan kontrakt asosida o’qiyotgan talabalarga berilayotgan kreditlar va boshqalar jamiyatning boshqa yoshlariga nisbatan ularga keng sharoitlar yaratilayotganligini anglatadi. Ayniqsa, so’nggi yillarda ta’lim, oliy ta’limning tobora liberallashtirib borishi, bu tizimlarda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va demokratik jarayonlar va ularda talabalarning ishtiroki yaratilayotgan imkoniyatlarni yanada kengaytirmoqda.

Maqsadlarning umumiyliigi – o’qish, turmush tarzi, ijtimoiy hayotda faol bo’lish kabi jarayonlar talaba yoshlarning jipslashuviga xizmat qiladi. Ularning muntazam o’zaro yaqin muloqotda bo’lishi, hayotda o’z o’rnini topishga intilishi, yangi g’oyalarga va jamiyatda progressiv islohotlarga intilishi kabilar talabalarning o’ziga xos xususiyati hisoblanadi [7].

Talaba yoshlar, ularning jamiyatdagi o’rni, xususiyatlari va boshqa muammolarini o’rganish bo’yicha bir qator dissertatsiya ishlari bajarilgan.

Talaba yoshlar yoshlar qatlami boshqa guruhlaridan quyidagi o'ziga xos xususiyatlari bilan farq qiladi:

- talaba yoshlarga yoshlar qatlamining guruhi sifatida o'tish davri xos;
- talaba yoshlar ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-psixologik muhitining o'ziga xosligi va uyushganligi;
- oila, mehnat kollektivi, bank va boshqa ijtimoiy institutlarga bog'liq bo'lgan guruh;
- talaba yoshlarning turli yoshlar harakati bilan bog'liq bo'lgan tashkilotlar bilan bog'liqligi.

Talaba yoshlar mutaxassislik va malakalilik xususiyati bo'yicha quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

- talaba yoshlar hali biror sohani to'la diplomli mutaxassis sifatida egallamagan;
- kelajakda intellektual salohiyatga va kasbga ega bo'lishi asosida jamiyat taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlash va uni qayta ishlab chiqish va tashkil etishdagi roli;

- kelajakda ma'lum kasb-hunar egasi sifatida faoliyat olib borishi;
- talaba yoshlar ziyolilar qatlamining kelajak zaxirasi;

Hozirgi kunda talaba yoshlar bilan bog'liq quyidagi masalalarning o'rganilishi dolzarb hisoblanadi:

- talaba yoshlarning biologik yoshini aniqlash masalasi;
- talaba yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xosligi;
- ta'lim tizimida talaba yoshlarning o'ziga xos ta'lim olishi, bilim olishi bilan birga axloqiy, kasbiy tarbiyasi;
- talaba yoshlarning intellektual, madaniy, ma'naviy va boshqa salohiyatini aniqlash, uni yuksaltirish hamda bu salohiyatni yuzaga chiqarish va realizatsiya qilish masalalarini hal etish;
- talaba yoshlarning qadriyatlari va aksiologik oriyentatsiyasi.

Talaba yoshlarning xususiyatlari to'g'risida gapirilganda, bu masala tadqiqotchilar tomonidan turlicha tavsiflanadi. Rossiyalik olim O.V.Yakupovanning fikricha: "Talaba yoshlar – o'tish xususiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy guruh. Talabalar oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lmasa-da, yuqori intellektual salohiyatga ega. Talabalar ular mavjud bo'lgan ijtimoiy muhit va ijtimoiy institutlar (oilalar, ta'lim) bilan bog'langan. Zamonaviy talaba yoshlarning qadriyatlar oriyentatsiyasi, hayotiy rejalari va ijtimoiy muammolarini o'rganish tadqiqotchilarning dolzarb muammosi hisoblanadi. O'tish davri xos bo'lgan ijtimoiy guruh sifatida talabalik qadriyatlar nuqtai nazaridan kelajakda ziyolilar guruhini to'ldirib boruvchi yangi intellektual qatlamning asosiga aylanib bormoqda" [7. B.67].

Zamonaviy talabalar guruhi tizimining o'zida ham turli sifatli o'zgarishlar yuz bermoqda. Masalan, talabalar safiga qo'shilayotgan yoshlarning ham yoshi ortib bormoqda. Bu holat mehnat bozorida talablarning o'zgarishi, yangi kasb-hunarlarining yuzaga kelishi va ularga nisbatan ehtiyojning ortib borayotganligi va ayrim kasblarning o'z dolzarbligini yo'qotib, keraksiz bo'lib qolayotganligi kabi holatlar bilan bog'liq.

So'nggi yillarda talabalar safida xotin-qizlar sonini ortib borishining sabablaridan yana biri jamiyatda ularning ijtimoiy mavqeining va rolining ortib borishiga hamda ularni talabalik bilan bog'liq ayrim moddiy muammolarini hal etishda hukumat tomonidan amaliy yordam ko'rsatilayotganligi bilan bog'liq. Jumladan, magistraturaga qabul qilingan xotin-qizlarning o'qishi bepul bo'layotganligi, bakalavrda ta'lim olayotgan talaba qizlarga davlat tomonidan 7 yilga foizsiz kreditlar ajratilayotganligi bunga misol bo'la oladi.

Albatta, talabalar ijtimoiy kelib chiqishi, yashash joyi, mentaliteti va boshqa xususiyatlari turlicha bo'lsa-da, ularning barchasini yagona faoliyat, ya'ni bilim olish bilan bandligi bitta ijtimoiy guruhga birlashtiradi. "Eng avvalo, talabalik ijtimoiy kelib chiqishidagi o'ziga xos farqlarga qaramasdan, umumiy faoliyat turi bilan bog'liq va bu ma'noda ma'lum ijtimoiy-kasbiy guruhni tashkil etadi. Talabalarining umumiy faoliyati va ma'lum hududda birlashganligi ularda umumiy manfaatlar, guruh sifatida o'z-o'zini anglashi, o'ziga xos madaniyat va turmush tarzini yuzaga keltiradi. Ularning boshqa ijtimoiy-kasbiy guruhlariga xos bo'lmagan yosh jihatdan ham deyarli birxilligi bu holatni yanada to'ldiradi" [8. B. 152–153].

Talaba yoshlarga berilgan ta'riflar asosida quyidagicha ta'rifimizni taklif etamiz: talaba yoshlar - yoshlarning o'ziga xos ijtimoiy-madaniy, ma'naviy-ruxiy, ilmiy jihatdan ilg'or va uyushgan, ma'lum kasbni egallashga qaratilgan o'qish faoliyati bilan shug'ullanuvchi, kelajakda jamiyat ziyolilar qatlamini to'ldirib boruvchi zaxira, milliy va zamonaviy qadriyatlar, madaniyatni muntazam o'zlashtirib boruvchi, yuqori intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlar guruhidir.

Yoshlar qatlamida talaba yoshlar jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim omillarini, imkoniyatini hamda salohiyatini kelajakka uzatuvchi va tashuvchi o'ziga xos ijtimoiy guruh hisoblanadi. Talaba yoshlar jamiyat kelgusi taraqqiyotida ziyolilar qatlamini to'ldirib boruvchi va tashkil etuvchi guruhdir. Bu guruh mamlakatning va millatning kelajakda xalqaro ijtimoiy makonda egallaydigan o'rni, obro'si va boshqa jamiyatlar bilan o'zaro munosabatlarining mohiyatini belgilab beradi. Shu bilan birga talaba yoshlar jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy-huquqiy, madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga katta ta'sir etuvchi bo'lajak ziyolilar guruhining davomchisi sifatida o'zini namoyon etadi. Chunki talaba yoshlar faoliyatidan kelib chiqib, jamiyatga yangiliklarni, innovatsiyalarni olib keluvchi va ularni tarqatuvchi, modernizatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan birga ularni faol harakatlantiruvchi subyekti hamda ijtimoiy kuchini tashkil etadi.

Ma'lumki, ziyolilar jamiyat a'zolarining ilg'or ijtimoiy qatlami. Tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida, ayniqsa o'tish davrlarida, jamiyatning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotida islohotlar amalga oshirilishi bosqichlarida ham ziyolilarga katta mas'uliyatlar yuklanib kelingan. Shunga ko'ra jamiyat talaba yoshlardan kelajakda faollik, kreativlik, yuksak intellektual salohiyat, yetakchi bo'la olish, vaziyatni o'z vaqtida va to'g'ri baholab, kutilmagan holatlarda qaror qabul qila olish kabi xatti-harakatlarni kutadi. Jamiyat tomonidan ularga qo'yiladigan talablar ham yoshlar qatlamining boshqa guruhlariga nisbatan yuqoriroq [9].

Talaba yoshlar hali oliy ma'lumotga yoki biror kasb-hunarga ega bo'lmasa-da, ma'lum intellektual salohiyat orttirgan bo'lib, bu salohiyat ularning bilim olish davrida yanada ortib boradi. Bugungi zamonaviy postindustrial taraqqiyot, innovatsiyalar davrida yoshlarning katta qismini oliy ma'lumotga ega bo'lish, bilim olish hamda tarqalayotgan eng yangi axborotlarga birinchilardan bo'lib ega bo'lish orqali, uni o'zlashtirishga undamoqda.

Talaba yoshlarning oldida talaba bo'lmagan yoshlarga nisbatan ko'proq vazifalar turadi, deyish mumkin. Chunki ularning o'qishni tugatishi, ma'lum kasbga ega bo'lishi, jamiyatda mutaxassisligi bo'yicha ish topa olishi, barqaror hayotni boshlay olishi, jamiyatda ma'lum erkinliklarga ega bo'lib o'zini "erkin shaxs" sifatida his eta boshlashi, mustaqil hayot boshlashi, o'zini mustaqil deb hisoblay olishi, oila qurishi, jamiyatda o'z

o'rniga ega bo'lganligi hamda mustaqil ekanligini his eta olishi va boshqa muammolarni mustaqil tarzda hal etishi zarur bo'ladi. Bu jarayon talaba yoshlarning ijtimoiylashuvining muhim bosqichi hisoblanadi.

Har bir insonning aksiologik ongida qadriyatlarning shaxsiy, milliy, umuminsoniy va boshqa turlari va ularning o'zaro aloqadorligi dialektikasi aks etadi. Jamiyatning har bir a'zosi, ayniqsa, yoshlar o'z hayotida turli qadriyatlarning uyg'unligi ta'sirida yashayotganligi aniq. Bu holat albatta, yoshlar uchun aksiologik tanlov imkoniyatlarini kengaytirib, ularning ijtimoiylashuvi, faoliyati hamda kelajagiga ta'sir etadi. Yoshlar jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakllanayotgan munosabatlarga qo'shilib, ularga kirib borishlari boshqa xalqlar madaniyati, urf-odatlar hamda traditsiyalarini ham o'zlashtirib boradilar [10. B.103].

Har bir millat va davlat uchun jamiyat taraqqiyotining subyektlari tizimida yoshlarning guruh sifatidagi mohiyati ularning maqsadlari, intilishlari, qadriyatlari strategik ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ular mazkur jamiyat taraqqiyotining uzluksizligini va evolyutsiyasini ta'minlovchi kuch sifatida kelajakning qanday bo'lishini belgilab bergan. Jamiyat hayotining obyektiv qonuniyatlari tabiat qonuniyatlaridan farq qilgan xolda insonning subyektiv ijtimoiy faoliyati orqali amalga oshadi. Jamiyatda amal qilinayotgan qonunlar, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va boshqalar mazkur jamiyatda yashayotgan insonlarning ham hayotiga ta'sir etib, uning ijtimoiy-madaniy olamini, hayot qoidalarini, turmush tarzini, ma'naviy-madaniy, axloqiy-estetik ongini belgilab beradi. Ijtimoiylashuv jarayonida bir qator soha olimlarining fikricha, madaniyat asosiy o'rin tutadi. "Ijtimoiylashuv insonning tarbiyasi bilan teng amalga oshib boradi, ya'ni tarbiya beruvchining tarbiyalanuvchiga ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, unda zarur xususiyatlarni shakllantirishga qaratilgan ta'siridan iborat. Ijtimoiylashuv shaxs shakllanishining qismi sifatida ba'zan tarbiya liniyasiga nisbatan ziddiyatli bo'lishi mumkin. Bu holat mazkur madaniyatda hukm surayotgan inson to'g'risidagi tasavvurlarning ta'siri ostida shakllangan bo'lishi mumkin" [11. B. 85].

Ma'lumki, marksizm mafkurasidan boshlab shaxsning shakllanishida iqtisodiy munosabatlar, moddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, bozor iqtisodiyoti kabi iqtisodiy omillar asosiy rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar keng tarqalgan. Bunda shaxsning shakllanishi jarayonida moddiy hayot asosiy sababchi qilib ko'rsatilgan. Shaxs shakllanishining asosiy determinantlaridan biri sifatida insonning biologik jihati, ya'ni genetik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega ekanligini e'tirof etuvchi olimlar shaxsning biologik jihatlari asosiy, ijtimoiy jihati ikkilamchi, deb ko'rsatilgan.

Yuqorida shaxs shakllanishiga oid fikrlardan kelib chiqib, bu boradagi ilmiy yondashuv shaxsning shakllanishida ham biologik, ham ijtimoiy jihatlar muhim omillar ekanligi, bu omillar konkret sharoit va zarurat doirasida yuzaga chiqishini isbotlashga asoslangan, deb aytish mumkin. Chunki shaxsning shakllanishida ayrim xollarda biologik xususiyatlar yetakchi bo'lsa, boshqa sharoitlarda ijtimoiy omillar muhim hisoblanadi. Aytish mumkinki, yoshlarning ijtimoiylashuv jarayoni ham yuqorida sanab o'tilgan omillar bilan bog'liq bo'lib, unga hozirgi zamonning modernizatsiya, innovatsiya jarayonlari hamda globallashuv olib kelayotgan turli madaniyatlarning elementlari kuchli ta'sir etmoqda. Yoshlarga bunday ta'sirlar boshqa yoshdagi shaxslarga nisbatan kuchli bo'lishi aniq, chunki yoshlar o'zining qiziquvchanligi, ta'sirga tez berilishi, yangiliklarga intilishi kabi jihatlari bilan qayd etilgan hodisalarga tez tortiladilar.

Jamiyat taraqqiyoti bilan birga oliy ta'lim tizimining ahamiyati yuksalib borishi natijasida talabalarining ham ijtimoiy subyekt sifatida mavqei ortib boradi. Ayniqsa, oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lishning ahamiyati saqlanib qolayotgan va ommaviylik kasb etib borayotgan hozirgi davrda talabalikning va ularga tarbiya berayotgan oliy o'quv yurtlarida ishlab faoliyat olib borayotgan subyektlarning ham jamiyatda roli ortib boradi. Bu borada xotin-qizlarning o'rnini alohida qayd etish zarur, chunki ular talabalarining katta qismini tashkil etadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston aholisining yoshlarning 1/3 qismini talaba yoshlar tashkil etadi. 2023-yil 23-may kuni Toshkent shahrida "Gender tenglik va munosib mehnat" mavzusida o'tkazilgan anjumanda aytilishicha, hozirgi vaqtda "Oliy ta'lim muassasalarida bakalavr yo'nalishida ta'lim olayotgan xotin-qizlar ulushi 38 foizdan 49 foizga, magistratura yo'nalishida 37 foizdan 50 foizga ko'tarilgan" [12.1]. Yaqinda talaba bo'lgan xotin qizlar hozirgi kunda "Sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida mehnat qilayotgan kishilarning 77 foizini, iqtisodiyot va sanoat sohasida 46 foizini ayollar tashkil etmoqda. Ikki ming nafarga yaqin xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda" [12.2].

Yurtimiz ravnaqi uning yoshlari uchun munosib sharoitlar yaratish yo'lida qabul qilinayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar, shuningdek, milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasida, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti strategiyasida milliy ma'naviy-madaniyatni rivojlantirish masalalariga doir muhim vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2021-yilning eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim" – degan edi [13].

Ayni ana shu maqsadlarni amalga oshirish borasida mamlakatimiz Prezidentining bir qator Farmon va Qarorlari, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda qabul qilingan 1059-son – Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori qabul qilindi [14].

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, hukumatimiz tomonidan qabul qilinayotgan muhim hujjatlar amaliy ahamiyatga ega bo'lmoqda. So'nggi yillarda oliy ta'limni taraqqiy ettirish bo'yicha qabul qilingan Farmonlar va Qarorlar mazkur sohani rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli, 2021-yil 9-sentyabrdagi "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi PF-6309-sonli va boshqa Farmonlari muhim ahamiyat kasb etadi. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 46-50 maqsadlari yoshlar siyosatiga bag'ishlangan bo'lib, unga ko'ra yoshlarni "oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish", "Qariyb 100ming o'rinli talabalar turar joylarini barpo etish" ko'zda tutilgan [15].

2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan Referendumda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi keng muhokama qilindi. Referendumda fuqarolarning 90 foizga yaqini faol ishtirok etdi. Referendum natijalaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobiga o'zgartirishlar kiritildi. Jumladan, bobning 78 moddasiga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi: Unda yozilishicha: "Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" [16. 78-modda]. Ko'rinib turibdiki, davlatimiz yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, millatga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishiga strategik vazifa sifatida qaraydi.

Shuningdek, Referendum natijalariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga avvalgisidan farq qilgan xolda yoshlarga bag'ishlangan alohida 79-modda kiritildi. Unda quyidagilar yozilgan: "Davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi.

Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi" [16. 79-modda].

Ko'rinib turibdiki, yoshlar muammosi davlat darajasida o'z ifodasini topayotgan strategik muammoga aylangan bo'lib, ular to'g'risida g'amxo'rlikni davlat to'la o'z bo'yniga olmoqda. Aslida yoshlarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, ularning ehtiyojlarini qondirish, ish bilan ta'minlash kabi vazifalarni bajarish doim ham davlatning ustuvor vazifalari qatorida bo'lib kelgan. Endilikda bu vazifa O'zbekiston Konstitutsiyasida aks etib, belgilanib qo'yildi.

Davlatimizda olib borilayotgan yoshlar siyosati ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, yoshlarning faolligini oshirish, ularni davlat, jamiyat va millat hayotida ro'y berayotgan islohotlar, innovatsiyalar rivojlanishi jarayonida subyektiv omil sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida ta'kidlanganidek, "Biz – g'ururi, oriyati, ma'naviyati baland xalqmiz. Bu, hech shubhasiz, katta boylik. Ajdodlarimiz asrlar davomida asrab-avaylab kelgan bu boylikni yo'qotib qo'ysak, kelgusi avlodlar bizni aslo kechirmaydi. Aksincha – bu fazilatni xalqimizni, millatimizni birlashtiradigan eng kuchli tamoyilga aylantirishimiz kerak. Negaki, milliy g'ururi baland xalqning qadr-qimmati ham baland ma'naviyati, irodasi kuchli bo'ladi. Bunday xalq bilan har qanday buyuk maqsadlarga etish mumkin" [17. B. 297–298].

## **XULOSA**

Talaba yoshlar ijtimoiy-madaniy muhitni dinamikasiga ta'sir etib o'zi ham o'zgaruvchi faol subyektiv omil sifatida tavsiflanishi mumkin. "Yoshlar" kategoriyasini barcha avlodlar hayotining ma'lum davriga nisbatan qo'llash mumkin. Yoshlar barcha davrlarda ham o'ziga xos ijtimoiy munosabatlar, funksiyalar, ehtiyojlarni tashuvchi, ijtimoiy siyosatning faol subyekti bo'lgan. O'zbekistonning taraqqiyotida yoshlar va ularning qadriyatlari muhim omil bo'lib qolmoqda.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Тошкент: Маънавият, 2019. – 920 б.
2. Смирнова Л.Г. Гуманистическое содержание национально-регионального компонента молодежной политики: Дисс. ... канд. филос. наук. – Чебоксары, 2006. – 150 с
3. Қодиров А. Анъанавий жамият ва уни модернизациялаштириш стратегияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2006. – 216 б.
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki>. Википедия – Эркин энциклопедия веб саҳифаси (12.05.2022).
5. Лисовский В.Т., Дмитриев В.А. Личность студента. – Ленинград: Изд-во ЛГУ, 1974. – 184 с.
6. Якупова О.В. Особенности студенческой молодежи. // Пермский Гос.Технический университет Пермский педагогический журнал (демо-версия) – № 7. С-94.
7. Шафигуллина Ю.В. Социокультурные особенности современного студенчества. // Система ценностей современного общества, 2009. – № 9. –С.149–154.
8. Алимардонов Т. Зиёлик ким ёхуд орифликнинг масъулияти нимада? // Халқ сўзи, 2021 йил 11 март.
9. Туленов Ж. Жамият фалсафаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2001. – Б.94.
10. Минюшев Ф.И. Социальная антропология. Москва, "Братья Карич", 1997.- С.85.
11. URL: [https://senat.uz/international\\_cooperation/post781](https://senat.uz/international_cooperation/post781) (23.09.2022).
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev 29 dekabr 2021 yilning eng muhim ustuvor vazifalari haqidagi Oliy Majlisga Murojatnomasi. [internetmanba]. URL: [https://nrm.uz/contentf?doc=646642\\_ozbekiston\\_respublikasi\\_prezidenti\\_shavkat\\_mirzиеevning\\_oliy\\_majlisga\\_murojaatnomasi\\_\(2020\\_yil\\_29\\_dekabr\)&products=1\\_vse\\_zakonodatelstvo\\_uzbekistana](https://nrm.uz/contentf?doc=646642_ozbekiston_respublikasi_prezidenti_shavkat_mirzиеevning_oliy_majlisga_murojaatnomasi_(2020_yil_29_dekabr)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana)
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda - Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1059-son Qarori 1 -ilovasi // Qoun xujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 03.01.2020 y, 09/20/1059/4265-son
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli Farmoni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son) <https://lex.uz/pdfs/5841063>
15. URL: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/6445145> (12.07.2022)
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" PF-60-sonli farmoni // (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022 y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022 y., 06/22/89/0227-son) <https://lex.uz/docs/3107036>.
17. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – <https://lex.uz/docs/6445145>